

## **TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARINI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

*Safarova Muxabbat Radjabovna*

*Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari jarayonlari, ularning hisobi va auditini takomillashtirish masalalari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda xalqaro pul o'tkazmalarining hisobi va auditini takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Xususan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish, audit jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali soddalashtirish kabi chora-tadbirlar taklif etiladi. Bu bilan nafaqat banklar orasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, balki xalqaro moliyaviy tranzaksiyalar xavfsizligi va shaffofligini ta'minlashga erishiladi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari jarayonlarini modernizatsiya qilish va auditini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Ishning natijalari xalqaro bank amaliyotiga mos bo'lgan yangi uslublarni joriy etishga xizmat qiladi va banklararo xalqaro tranzaksiyalarning samaradorligini oshirishga ko'mak beradi.

**Kalit so'zlar:** Tijorat banklari, xalqaro pul o'tkazmalari, moliyaviy hisobot, audit, bank operatsiyalari, audit standartlari, moliyaviy nazorat, pul o'tkazmalari tizimi, banklararo tizim, audit samaradorligi, pul oqimlari, bank ishi.

**Annotation:** This article examines the processes of international money transfers in commercial banks, the issues of improving their accounting and auditing. In the course of the study, ways to improve accounting and auditing of international money transfers in Uzbekistan will be considered based on international experience. In particular, measures such as the use of modern technologies, automation of financial reports, simplification of audit processes through digital technologies are proposed. This not only helps to develop mutual relations between banks, but also ensures the security and transparency of international financial transactions. This research work creates a scientific and practical basis for the modernization of international money transfer processes and improvement of auditing in commercial banks of Uzbekistan. The results of the work serve to introduce new methods compatible with international banking practice and help to increase the efficiency of interbank international transactions.

**Keywords:** Commercial banks, international money transfers, financial reporting, audit, bank operations, audit standards, financial control, money transfer system, interbank system, audit efficiency, cash flows, banking.

### **KIRISH**

Hozirgi davrda globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan sharoitda xalqaro moliyaviy operatsiyalar ham shunga mos ravishda ko'paymoqda. Xalqaro moliyaviy tizimlar o'zaro integratsiyalashib borayotgani natijasida tijorat banklari uchun xalqaro pul o'tkazmalarining ahamiyati yanada oshib bormoqda. Ushbu operatsiyalar nafaqat xalqaro savdo-sotiq va moliyaviy investitsiyalarda muhim o'rinni tutadi, balki davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shunday sharoitda xalqaro pul o'tkazmalari hisobi va auditni alohida ahamiyat kasb etadi. Ular tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va pul mablag'larining to'g'ri yo'naltirilishini nazorat qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda xalqaro pul o'tkazmalari ko'p jihatdan mijozlarning talablariga va texnologik imkoniyatlarga bog'liq. Bunda tijorat banklari innovatsion texnologiyalarni joriy etib, mijozlarga qulay va xavfsiz xizmatlar ko'rsatishga intilishmoqda. Shu bilan birga, xalqaro pul o'tkazmalari hisobida yuzaga keladigan xavf va muammolarni bartaraf etish ham muhim masalalardan biridir. Pul o'tkazmalarining hisobi va auditini takomillashtirish, tijorat banklari uchun xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro pul o'tkazmalari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim iqtisodiy vosita bo'lib, ular orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport va import operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash hamda chet elda ishlayotgan fuqarolarning pul jo'nalmalarini amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari jarayonlarini takomillashtirish, ularning hisobi va audit tizimlarini rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi iqtisodiy sharoitda xalqaro pul o'tkazmalariga bo'lган ehtiyoj ortib bormoqda. Odamlar va korxonalar o'rtasida global miqyosda to'lovlarini amalgalashish uchun qulay va tezkor moliyaviy mexanizmlar talab etiladi. Shu bilan birga, xalqaro pul o'tkazmalarida ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasidagi moliyaviy tranzaksiyalarning aniqligi va ishonchliligi hamda ularga doir audit tekshiruvlari katta ahamiyatga ega. Shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalaridagi moliyaviy harakatlarning qonuniyligini ta'minlash va ularni monitoring qilishning zamonaviy usullari ham kun tartibida turibdi.

Xalqaro pul o'tkazmalari tijorat banklari faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Mamlakat ichidagi va xorijdagi mijozlar o'rtasidagi moliyaviy operatsiyalarni samarali amalgalashish uchun banklar xalqaro pul o'tkazmalari xizmatlarini ko'rsatadilar. Ushbu xizmatlar to'lovlarining tezkorligi va ishonchliligini ta'minlashi, bank mijozlarining talab va ehtiyojlariga javob berishi lozim. Shu nuqtai nazardan, xalqaro pul o'tkazmalari hisobini to'g'ri va aniq olib borish hamda ularning auditini samarali o'tkazish tijorat banklari uchun katta ahamiyat kasb etadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bank faoliyatini samarali boshqarish, xalqaro moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish va ularning hisob-kitob tizimlarini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu sohada ko'plab xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar hamda amaliy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular tijorat banklari faoliyatida xalqaro pul o'tkazmalarining o'rni, audit jarayonlarini takomillashtirish va xavf-xatarlarni boshqarish borasida muhim yo'l-yo'riqlar beradi.

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobi tahli qilishda bank ichki operatsiyalari hisobi va auditini o'rganish juda ham muhim hisoblanadi. Tijorat banklarida bank ichki operatsiyalari hisobi va auditi bo'yicha xorijlik iqtisodchi-olimlardan R.Adams, A.Arens, D.Llobbek, G.N.Beloglazova, L.P.Kroliveskaya, Y.F.Jukov, Y.P.Kozlova, Ye.N.Galagina, G.G.Korobova, I.O. Lavrushina, S.T.Mirjakipova, I.V.Рещанская, A.K.Polіщук, Y.B.Starodubseva, T.S.Selevanova, S.K.Semenov, A.M.Tivasiev, N.D.Eriashvili, Z.G.Shirinskaya, T.N.Nesterova, N.E.Sokolinskaya<sup>3</sup> va boshqalar tadqiqot olib borganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.U.Azizov, B.T.Berdiyarov, R.D.Dusmuratov, A.K.Ibragimov, N.F.Karimov, Z.T.Mamatov, X.N.Musaev, S.Norqobilov, U.O.Saxobov, M.M.Tulaxodjaeva, Z.A.Umarov, B.A.Xasanovlar tijorat banklarida bank ichki operatsiyalari hisobi va auditi sohasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Xususan, N.F.Karimov tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish tizimi, ichki audit xizmatining milliy standartlarini ishlab chiqish, tekshiruvni rejalashtirishda muhimlilik va audit ob'ektini tanlashning amaliy ahamiyati tahlil qilinib, takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan takliflar taqdim etilgan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlardagi mavjud ichki audit tizimi faoliyatini o'rganish va uning shakllanish bosqichlarini tahlil qilish natijasida, ularning amaliyotdagi yutuqlarini respublikamiz tijorat banklari ichki audit tizimi faoliyatida qo'llash yuzasidan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan<sup>1</sup>.

Sh.U.Azizov tomonidan tijorat banklarida tashqi audit tadqiq etilib, aksiyadorlik tijorat banklarida tashqi auditning nazariy masalalari, tashqi audit tekshiruvini tashkil qilish va uni amalga oshirish tartibi, auditorlik hisobotlarini tuzilishi va auditorlik xulosalarini olish tartibini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar taqdim etilgan. Yuqorida ta'kidlangan olimlarning ilmiy ishlarida bank ichki operatsiyalari hisobi va auditining ayrim masalalari qamrab olingan<sup>2</sup>.

Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobi va auditini takomillashtirish bo'yicha adabiyotlar sharhi mazkur jarayonlarning nazariy asoslari, texnologik

<sup>1</sup> Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uni takomillashtirish muammolari: Iqtisod fan. dok. diss.avtoreferati – Toshkent:BMA, 2006. – 44b.

<sup>2</sup> Azizov Sh.U. Tashqi audit tekshiruvini o'tkazishni tashkil qilish va takomillashtirish masalalari (Aksiyadorlik-tijorat banklari misolida) iqtisod fan. Nom. Diss. Avtoreferati. Tashkent: BMA, 2009. – 22b.

rivojlanishi va xalqaro tajribalarini yoritadi. Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro audit standartlari va ilmiy izlanishlar ushbu sohada dolzarb muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribalar va tavsiyalar asosida tijorat banklari xalqaro pul o'tkazmalari hisob-kitoblari va audit jarayonlarini samarali amalga oshirishi mumkin bo'ldi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida Tijorat banklarida xalqaro pul o'tkazmalari hisobi va auditini takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon xalqaro pul o'tkazmalari mamlakat iqtisodiy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, mehnat migrantlari tomonidan xorijda ishlanayotgan pullar O'zbekiston iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Ushbu pul oqimlari aholining turmush darajasini oshirish, iste'molni moliyalashtirish va ichki iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Xalqaro pul o'tkazmalari – bu bir mamlakatdan boshqa mamlakatga pul yuborish jarayoni. Bu jarayon ko'pincha moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda pul o'tkazmalarining asosiy operatorlari – xalqaro pul o'tkazish tizimlari, banklar va elektron to'lov tizimlari hisoblanadi. Ushbu tizimlar orqali xorijdan yuborilgan pulni olish oson va tez amalga oshiriladi.

O'zbekistonda eng keng tarqalgan xalqaro pul o'tkazish xizmatlari asosan xalqaro to'lov tizimlari va banklar orqali amalga oshiriladi. Ushbu xizmatlar orqali mamlakatga xorijdan yuboriladigan mablag'lar ko'p o'tkaziladi. Quyida O'zbekistonda keng qo'llaniladigan xalqaro pul o'tkazish xizmatlaridan bir nechtasini ko'rishimiz mumkin (1-jadval):

**1-jadval****O‘zbekistondagi xalqaro pul o‘tkazish xizmatlari<sup>3</sup>**

<b>Nº</b>	<b>Xalqaro pul o‘tkazmalari</b>	<b>Vazifasi</b>
1	Western Union	Western Union dunyodagi eng mashhur xalqaro pul o‘tkazish tizimlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda bu xizmat juda keng qo‘llaniladi, ayniqsa mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan pullarni olishda foydalilanadi. Western Union xizmatlari orqali tez va xavfsiz pul o‘tkazish mumkin. Mijozlar mablag‘larni banklar va Western Union filiallaridan olishlari yoki yuborishlari mumkin.
2	MoneyGram	MoneyGram ham xalqaro pul o‘tkazmalarida ko‘p qo‘llaniladigan tizimlardan biridir. Bu xizmat orqali O‘zbekistonga mablag‘ yuborish va olish oson va tez amalga oshiriladi. MoneyGram xizmatlari ko‘pincha Rossiyada va boshqa MDH davlatlarida ishlayotgan mehnat migrantlari orasida keng tarqalgan.
3	Золотая Корона	Золотая Корона ham Rossiyada mashhur bo‘lgan xalqaro pul o‘tkazish xizmatlaridan biridir. Ushbu tizim orqali O‘zbekistonga pul o‘tkazmalarini amalga oshirish oson. Xizmatlari ko‘pincha Rossiyada faoliyat yuritayotgan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari tomonidan qo‘llaniladi.
4	Ria Money Transfer	Ria Money Transfer dunyodagi yetakchi xalqaro pul o‘tkazmalari tizimlaridan biri hisoblanadi. Tizim xalqaro bozorda 1987-yildan beri faoliyat yuritadi hamda dunyoning 180 dan ortiq mamlakatlari va hududlarida 500 000 dan ortiq xizmat ko‘rsatish punktlaridan iborat global tarmoqqa ega.
5	UPT	Universal Payment Transfers (UPT) - xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi bo‘lib, foydalanuvchilarga dunyoning turli burchaklariga tez va xavfsiz pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi. “UPT” tizimi Turkiya va qo‘sni mamlakatlarga o‘tkazmalar uchun past komissiya taklif etadi, shuningdek, tezkor tranzaksiyalarni kafolatlaydi. Bu mablag‘larni qabul qiluvchiga pullarni bir necha soniya ichida tezda olishga yordam beradi.
6	AsiaExpress	AsiaExpress - Rossiya va O‘zbekistonda pul o‘tkazmalarini yuborish va qabul qilish uchun foydali, ishonchli, qulay,


<sup>3</sup> Internetdagi ma’lumotlar asosida muallfi tomonidan tayyorlandi

		shuningdek tezkor pul o'tkazmalari tizimlaridan biri. Ushbu tizim bankda hisob ochmasdan pul o'tkazmalarini yuborish yoki qabul qilish imkonini taqdim etadi. AsiExpress tizimi bo'yicha pul o'tkazmalari Hamkorbankning barcha bank ofislarida amalga oshiriladi.
7	SWIFT	SWIFT xalqaro o'tkazmalari – jismoniy shaxs hisobidan boshqa bir jismoniy yoki yuridik shaxsning hisobraqamiga pul o'tkazishning qulay usuli. Tezkorlik, xavfsizlik va ma'lum cheklolvar mavjud bo'lgan xalqaro pul o'tkazmalari tizimlaridan farqli ravishda katta miqdordagi mablag'ni o'tkazish imkoniyati uning afzalliklari hisoblanadi. SWIFT o'tkazmasi yordamida davolanish, o'qish, dam olish, yaqinlarga yordam berish hamda chet eldan xarid qilish kabi maqsadli to'lovlarni bajarish qulay.

Yuqoridaagi jadvalda keltirilgan O'zbekistondagi xalqaro pul o'tkazish xizmatlarining xilma-xilligi migrantlar va ularning oilalari uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ushbu xizmatlarning raqobati o'tkazmalarni tezroq va arzonroq qilishga yordam beradi.

Yurtimizda pul-kredit siyosati borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro pul o'tkazmalariga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazmoqda. Xalqaro pul o'tkazmalarining asosiy qismi to'g'ri keladigan hamkor davlatlar iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar va valyuta kurslari devalvatsiyasi mamlakatimizga kirib keladigan pul o'tkazmalari hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, 2023 yilda o'tkazmalar hajmining 20-30 foizga qisqarishiga olib keldi. Keskin pasayish qisman yuqori baza effekti, ya'ni 2022 yildagi pul o'tkazmalari hajmining yuqori darajada oshganligi bilan ham izohlanadi. 2024 yildan pul o'tkazmalarida 5-6 foizlik o'sish sur'atlari tiklana boshladi.


Mamlakatimizga kirib kelgan pul o'tkazmalari hajmi 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida sezilarli darajada oshgan edi va oldingi yilning mos davriga nisbatan 2,2 barobarga o'sib, 12,6 mlrd. dollarni tashkil etdi (1-rasm):



**1-rasm. 2021-2022 yillardagi xalqaro pul o'tkazmalari<sup>4</sup>**

Xalqaro pul o'tkazmalarining keskin o'sishi Rossiya rubli almashuv kursining dollarga nisbatan sezilarli darajada mustahkamlanishi, Rossiyadagi valyuta chekllovleri natijasida mehnat muxojirlarining pul o'tkazmalarini norasmiy kanallar orqali emas, rasmiy kanallar orqali jo'natishga o'tganligi, naqd pulda eksport qiluvchi kichik va o'rta biznes sub'ektlarining ko'payishi va eksport tushumlarini pul o'tkazmalarini kanallari orqali yuborilishi kabi omillar bilan izohlanadi.

Xalqaro pul o'tkazmalarini hajmida mart oyidagi pasayishdan so'ng aprel oyidan sezilarli o'sish kuzatildi (2-rasm):



**2-rasm. 2022 yildagi xalqaro pul o'tkazmalari<sup>5</sup>**


Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2022 yilning 9 oyida mamlakatimizga jami 12,6 mlrd. dollarlik yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosatining 2023-yil va 2024-2025-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" loyihasining asosiy ssenarisidagi ma'lumotlar asosida muallfi tomonidan tayyorlandi

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Pul-kredit siyosatining 2023-yil va 2024-2025-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari" loyihasining asosiy ssenarisidagi ma'lumotlar asosida muallfi tomonidan tayyorlandi

barobarga ko‘proq pul o‘tkazmalari kelib tushdi va valyuta bozorida taklifni qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘ldi.

O‘tgan yilda boshlangan geosiyosiy ziddiyatlarning ichki iqtisodiyotga ta’sirlari bosqichma-bosqich pasaymoqda. Xususan, mamlakatimizga kirib kelayotgan pul o‘tkazmalari hajmi joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan sezilarli pasaygan bo‘lsa-da, o‘zining uzoq muddatli trendiga qaytdi (3-rasm):



**3-rasm. Pul o‘tkazmalari hajmi, (mln. doll.)<sup>6</sup>**

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida jami 8,4 mlrd. dollarga teng pul o‘tkazmalari kirib kelgan bo‘lib, bu 2022 yilning mos davriga nisbatan 33,7 foizga kamroqni tashkil etdi. Biroq ushbu ko‘rsatkich 2021 yilning mos davri bilan solishtirganda 45,5 foizga yuqori shakllandi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari va auditini takomillashtirishning zamонавиy mexanizmlarini tatbiq etish va ularni O‘zbekiston Respublikasidagi barcha tijorat banklarida qo‘llash tijorat banklarida xalqaro pul o‘tkazmalari rivojlantirish va uni nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan xalqaro pul o‘tkazmalarini tartibga solishning zamонавиy mexanizmlari, jumladan, xalqaro moliyaviy standartlar, regulyatorlar va monitoring tizimlari, xalqaro hamkorlik va shartnomalar, hujjatlarni tekshirish tizimlari, mijozlar uchun qulaylik va shaffoflik yaratish mexanizmlari, xavfsizlik tizimlarini mamlakatimizdagи tijorat banklari faoliyatida keng rivojlantirilishi maqsadga muvofiq.

Xalqaro pul o‘tkazmalarini takomillashtirishda, avvalambor, tijorat banklaridagi xalqaro pul o‘tkazmalarini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda masofaviy (distansion) nazorat, banklararo nazorat, inspeksion (joyiga borib) nazorat bank faoliyatini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ularni taqdim etishning shaffof mezonlarini ishlab chiqish, samaradorlikni baholashning aniq mexanizmlarini joriy qilish talab etiladi chunki raqamli iqtisodiyot rivojlanishi natijasida banklarning

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin “Pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025-2026-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari” loyihasining asosiy ssenarisidagi ma‘lumotlar asosida muallfi tomonidan tayyorlandi

faoliyati ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Bu borada ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish, xususan, tijorat banklaridagi xalqaro pul o‘tkazmalarini faoliyatini tartibga solishning maqsadli va natijadorligini baholashning zamonaviy usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, tijorat banklaridagi xalqaro pul o‘tkazmalarini faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tijorat banklarning xalqaro pul o‘tkazmalarini monitoring tizimi va undagi nazoratchilar uchun qulayliklarni oshirish, tijorat banklarda xalqaro pul o‘tkazmalarini faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish jarayonlarining shaffofligini ta‘minlash va bank faoliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sonli Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi 154-I-sonli Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish haqida”gi 2019-yil 11-noyabrdagi O‘RQ-582-sonli Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori
6. O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-dekabrdagi “Transchegaraviy pul o‘tkazmalarini ta‘minlash bo‘yicha to‘lov tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 771-sonli Qarori
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni

12. Abduvaxidov F.T., Umarov Z.A., Djuraev K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2010. –224 b.
13. Donald Ressegue Accounting for Banks Matthew Bender 2012 y
14. Ibragimov A.K., Marpatov M.D. Halqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi T. Moliya. 2010 yil
15. Karaliev T.M. va boshqalar Bank ishi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2016, 640 bet.
16. Navruzova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika T., MOLIYA – IQTISOD 2010 y.
17. Navruzova K.N., Karimov N.G., Ortiqov U.D. Banklarda buxgalteriya hisobi VIP POLIGRAF.T., 2013 y.
18. Omonov A.A., Karaliev T.M. Banklarda buxgalteriya hisobi. T., MOLIYA – IQTISOD 2014 y.
19. Temirov A.A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika T., TDIU 2010 y.
20. Бухгалтерский учёт в банках: учебник/ К.Наврузова, Р.Аллаберганов, -Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. – 312 с.
21. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uni takomillashtirish muammolari: Iqtisod fan. dok. diss. avtoreferati – Toshkent:BMA, 2006. – 44b.
22. Azizov Sh.U. Tashqi audit tekshiruvini o’tkazishni tashkil qilish va takomillashtirish masalalari (Aksiyadorlik-tijorat banklari misolida) iqtisod fan. Nom. Diss. Avtoreferati. Tashkent: BMA, 2009. – 22b.
23. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
24. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
25. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
26. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti